

TURKISTON XALQ MUZEYI MODDIY MADANIY BOYLIKLARIMIZNI ILMIY ASOSLARDA O'RGANILISHI UCHUN ASOSIY OMIL SIFATIDA



Dilorom Ashurova

3-bosqich tayanch-doktoranti
O'zR FA San'atshunoslik instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-02-13>

Annotatsiya: O'rta Osiyo xalqlariga tegishli bo'lgan buyumlarni to'plash, kolleksiyalash ishlari rasmiy tartibda olib borilgan hamda ilmiy asosda o'rganila boshlangan. Madaniy boyliklarni jamlash, o'rganish, kolleksiyalashga bo'lgan qiziqish mahalliy olimlarni ham qiziqitira boshladi hamda vaqt o'tib ushbu jarayon muzeylarni tashkil etilishiga ham asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Kasbining mutaxassislari bo'lgan olim, o'lkashunos, shifokorlar mahalliy aholi vakillari bilan birgalikda Turkistonda yevropacha standartlardagi muzeylar to'plami, qo'lyozma kolleksiyalashni jamlash va ommaviy kutubxonalarni tashkil etish ishlariga boshchilik qilishgan. Sovet hukumati tashkil etilgan ilk muzeylar natijasida madaniy boyliklar, tarixiy osori – atiqalarni milliyalashtirish asoslarini, madaniy boyliklarni asrash hamda ba'zi yodgorliklarni, muhim hisoblangan kolleksiyalarni asrashga ahamiyat qaratildan qarorlar qabul qildi.

Kalit so'zlar: etnograf, Peterburg kutubxonasi, Turkiston xalq kutubxonasi, ekspozitsiya, numizmatika.

Аннотация: Сбор и коллекционирование предметов, принадлежащих народам Средней Азии, осуществлялись в официальном порядке и начались исследования на научной основе. Интерес к сбору, изучению и коллекционированию культурных ресурсов также привлек интерес местных учёных, и со временем этот процесс послужил основным фактором для создания музеев. Специалисты своих профессий, учёные, краеведы, врачи совместно с представителями местного населения возглавили работу по организации музейных коллекций европейского уровня, рукописных коллекций и публичный библиотек в Туркестане. В результате создания первых музеев советское правительство приняло решения на основе национализации культурных ценностей, исторических артефактов - антиквариата, сохранения культурных ценностей и сохранения некоторых памятников и важных коллекций.

Ключевые слова: этнограф, Санкт-Петербургская библиотека, Туркестанская народная, библиотека, экспозиция, numizmatika

Abstract: The collection of artifacts belonging to the peoples of Central Asia was officially carried out and began to be studied on a scientific basis. The interest in collecting, studying, and collecting cultural treasures also began to interest local scientists, and over time this process also served as a key factor in the establishment of museums. Scientists, local historians, and doctors, who were experts in their profession, together with representatives of the local population, led the work of creating museums in Turkestan that met European standards, collecting manuscripts, and organizing public libraries. As a result of the first museums established, the Soviet government adopted decisions that laid the foundations for the nationalization of cultural treasures, historical artifacts - antiquities, the preservation of cultural treasures, and the preservation of certain monuments and collections considered important.

Keywords: ethnographer, Petersburg Library, Turkestan National Library, exposition, numismatics.

Turkiston xalq muzeylari Sobiq Ittifoq davrida tashkil etilib, o'sha davr mafkurasiga yo'g'rilgan bo'lsada, mustaqillik davrida olimlarning tarixga holis yondoshgan holda tadqiq etishgan va muzeysunoslik sohasidagi ijobiy taraflariga ham o'rganishgan. "Туркестанские ведомости" нинг 1876 yil 16 martdagi nashrida General-gubernator idorasiga rasmiy xatda gazeta muxarriri N.A.Mayevning Toshkentda muzey ochish haqidagi bayyonomasi yuborilgani haqida ma'lumot berilgan.

Bizning hududimizni Rossiya imperiyasi bosib olguniga qadar va bosib olganidan keyin ko'plab tarixchi, etnograf, geograf, geolog, arxeolog kabi olimlar yashab, ilmiy ish olib borgani hech kimga sir emas. Ular tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar tariximizni o'z ichiga olgan. 1853 yili Rossiya imperiyasi Oqmachitni bosib olganidan 1876 yili Qo'qon xonligi tugatilishiga qadar ularning barcha yurishlarida olimlar turli hujjat, qo'lyozma, kitob va boshqa osori-atiqalarni to'plashgan. General-gubernator K.P.Fon Kaufman farmoniga asosan Samarqand istilosidan so'ng qo'lga kiritilgan xalifa Usmon Qur'oni sharqshunos A.L.Kun tashabbusi bilan Peterburg ommaviy kutubxonasiga yuborilgan. Buxoro amirligida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik To'ra boshchiligidagi qo'zg'alonni bostirish davomida rus harbiy ekspeditsiyasi Shahrisabz va Kitob beklaridan 97 ta qadimiy qo'lyozmani olib qaytgani ma'lum.

Xivaga 1873 yilgi yurish davomida qo'shin tarkibida qatnashgan sharqshunos olim A.L.Kunga (1840-1888) Peterburg kutubxonasi va muzeylari uchun ilmiy ahamiyatiga molik hamma narsalarni sinchiklab tekshirish hamda to'plash topshirilgan edi. Natijada xon kutubxonasidan 300 ga yaqin qo'lyozma kitoblar musodara qilingan. Xiva xonliklarining tanga pul zarb qiladigan 200 nusxa qolipi, bir qancha muxr, xonning taxti, 172 nusxa mo'g'ullar davri tangalari, qo'ng'irotlar sulolasiga oid tangalardan 3 nusxadan, ko'plab etnografik buyumlarni to'plab imperiya poytaxtiga jo'natilgan. Xiva ustalarining kandakorlik san'ati na'munasi bo'lgan taxt 1874 yil nodir ashyolar to'plami qurol-aslahalar palatasiga yuborilgan. Xivadan olib ketilgan ashyolar va bolalar kiyimlari, oltin va kumush zargarlik buyumlari, "Царское село" qo'riqxonasi, Peterburg badiiy rag'batlantirish jamiyati muzeyi, Moskva politexnika muzeylariga taqsimlab berilgan. Xiva xonligidan talangan qimmatbaho buyumlarning katta qismi Rossiya Davlat Ermitaji, Etnografiya muzeylariga ham olib ketilgan.

Respublika Markaziy davlat arxividagi hujjatlar ichida Turkiston General-gubernatori Kaufmanga 1878 yil 27 oktyabrda yuborilgan tashakkurnoma saqlanib, unda Kavkaz noibi boshqarmasi Toshkentdan yuborilgan yetti yashik etnografik buyumlar olinib, Tiflis muzeyiga joylashtirilgani haqida xabar berilgan.

O'rta Osiyo xalqlariga tegishli bo'lgan buyumlarni to'plash, kolleksiyalash ishlari rasmiy tartibda olib borilgan hamda ilmiy asosda o'rganila boshlangan. Bundan tashqari O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga oid asori-atiqalarni arzon garovga sotib olib, xususiy boylik ortirish payida bo'lgan kishilar ham kam emasdi. Ular qatorida Zarafshon okrugi boshlig'i general A.Abramov, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general N.Golovachev, Amudaryo bo'limi boshlig'i A.Galkin va boshqalar bo'lib, ular to'plagan kolleksiyalar ham ushbu davrga oid.

Madaniy boyliklarni jamlash, o'rganish, kolleksiyalashga bo'lgan qiziqish mahalliy olimlarni ham qiziqitira boshladi hamda vaqt o'tib ushbu jarayon muzeylarni tashkil etilishiga ham asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Kasbining mutaxassislari bo'lgan olim, o'lkashunos, shifokorlar mahalliy aholi vakillari bilan birgalikda Turkistonda yevropacha standartlardagi muzeylar to'plami, qo'lyozma kolleksiyalashni jamlash va ommaviy kutubxonalarni tashkil etish ishlariga boshchilik qilishgan.

1870 yili Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasining tashkil etilgan bo'lib, unga ko'plab xususiy kolleksiya to'plovchilari tomonidan taqdim etilgan qo'yozmalar, qimmatbaho buyumlar saqlab qolingani hamda Y.F.Kal tomonidan arab, fors va turkiy qo'lyozmalarning tavsifi o'rganilib, 1883 yilda nashrdan chiqarilgan.

Kutubxonang qo'lyozmalar bo'limi 1898 yili Andijon qo'zg'alondan so'ng Dukchi Eshon Muhammad Alidan musodara qilingan asarlar bilan boytilgan. Professor V.A.Jukovskiyning ma'lumotiga ko'ra, kutubxonada islom tarixi, tasavvuf ilmiga oid 194 ta qo'lyozma bo'lgan.

Shulardan kutubxona katalogiga 1912 yili 311 tasi kiritilganligi sharqshunos A.A.Semyonov tomonidan yozib qoldirilgan .

Madaniy boyliklarni o'rganish ayrim olimlar tomonidan qiziqish bilan jamlangan, o'rganilgan hamda ba'zi amaldorlar tomonidan homiylik ishlari olib borilgan. Biroq general-gubernatorlik ma'murlari tomonidan bu sohaga kam mablag' ajratilgan. Sharqshunos V.V.Bartoldning ma'lumot berishicha "O'rta Osiyo xalqlari qadimgi madaniyatini o'rganish, yodgorliklarni asrashni foydasizgina emas, balki zararli hamdir" deb hisoblagan . Ma'muriyatning bunday munosabati barcha osori atiqalarning xorijliklar va mahalliy antikvar buyumlar jamlovchilar tomonidan talan taroj qilishiga olib kelgan. Bundan tashqari xorijliklarning o'rganishi uchun keng imkoniyatlar bo'lganidan ular bemaol madaniy boyliklar ustidan ilmiy ishlar olib borganlar. Shunday olimlar qatorida fransuz olimi Sharl Uiyfalfi boshchiligidagi ekspeditsiya Samarqand tarixiy obidalarining qoplama koshin na'munalaridan yetti yashigini olib ketgan. Mustamlaka ma'murlarining e'tiborsizligi tufayli, G.Vamberi, V.Frank, G.Mozer va boshqalar tomonidan ko'plab qimmatbaho buyum, nodir qo'lyozmalar Yevropa mamlakatlariga olib ketilgan .

Xorijiy olimlar O'rta Osiyoga kelib madaniy boyliklarni olib ketish bilan birgalikda ularni o'rganib, asl qiymatini ham ilmiy takidlab berishgan. Samarqand me'moriy obidalar bilan tanishib qaytgan shvetsiyalik me'mor Martin Rossiya moliya vaziri S.Vittega yozgan xatida shahardagi me'morchilik ansanbilining jahon madaniyati uchun ulkan ahamiyatini takidlash bilan birga, bu ulug'vor yodgorliklarni muhofaza qilish va o'rganishni tashkil etishni so'raydi. Natijada 1895 yili bu tadbir uchun ma'lum mablag' ajratilib, o'lchash, chizmalar chizish, tadqiqot ishlari boshlab yuboriladi.

Rossiya istilosidan keyin ilmiy tadqiqot ishlarining aksariyati Turkistonning moddiy boyliklarini o'rganish, ulardan rasional foydalanishga yo'naltiriladi. A.P.Fedchenko, V.V.Dokuchayev, I.V.Mushketov va boshqalarning tuproqshunoslikka oid tadqiqotlari O'rta Osiyoda zamonaviy ilmiy fanlarga asos soldi . Rus ziyolilari A.P.Fedchenko, I.V.Mushketov, V.F.Oshanin, V.V.Bartold va boshqalar Turkistonni atroflicha o'rgangan va Turkistonda ham muzeylar ochilishi taklifi bilan chiqqan olimlar hisoblanishadi. Ularning ilmiy izlanishlari o'z ichiga geografiya, botanika, geologiya, mineralogiya, numizmatika, tarix, etnografiya va boshqa ko'plab sohalarni o'z ichiga olgan.

A.P.Fedchenkning Turkiston general – gubernatoriga yozgan axborotida: "Turkistonni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun u bilan asosli ravishda tanishib chiqish lozim, muzey esa buning uchun eng yaxshi vositadir", - deb yozadi . 1871 yili tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlari jamiyatining Turkiston bo'limi yig'ilishida muzey tashkil etilishi taklifi ko'rib chiqiladi. O'rta Osiyoning ko'p sonli ziyolilari ushbu masalada takliflar bera boshlashadi. 1876 yilning 9 yanvarida Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori general N.Golovochayev muzeyni komplekslash masalasidagi yig'ilishda D.Y.Yujakov, N.A.Mayev, V.F.Oshanin, A.I.Vilkins va I.I.Krauzelar bilan birgalikda muzey tashkil qilish qarorini qabul qiladi. O'rta Osiyo hududidagi birinchi muzey 1876 yil tashkil etilgani tarixga muhrlandi.

Davlat tomonidan bino ajratilmagani sababli N.A.Mayev o'zining ipakchilik maktabidan muzey uchun ikkita xona ajratadi. Ko'p o'tmay muzey statistikasi bo'limi ixtiyoriga o'tkaziladi. Muzey ta'minoti uchun yiliga 300 so'm ajratilganidan tashqari, ba'zi shaslarning moddiy yordamlari ham kelib tushgan. N.A.Mayevning yozishicha, muzey faoliyati uchun yiliga 1600 so'mlik mablag' talab etilgan .

1877 yilning yanvariga kelib, muzey etnografiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi, tabiat tarixi va arxeologiya bo'yicha 1500 dan ortiq ashyolarga, 800 ga yaqin qadimiy tangalarga ega bo'ldi. Muzey eksponatlari asosida etnografiya-texnika, tabiat, tarixiy-arxeologiya, numizmatika, qishloq xo'jaligi bo'limlari mavjud bo'lgan. Ekspozitsiya o'lkamizning an'anaviy amaliy san'ati na'munalaridan boshlanib, ilk vohasida yashagan uyg'urlarning G'uljadan yuborilgan an'anaviy kiyim-kechaklari ham namoyish etilgan. Shuningdek, ko'rgazmaga qurol-yarog'lar, musiqa asboblari kolleksiyasi, hunarmand to'qimachilarning ipak, jun, paxta tolasidan to'qilgan gazlamalari na'munalari, Hisor olchasi, Shahrisabz bahrombegisi, Qoshg'ar bozorlarida

sotiladigan ingliz gazlamalari na'munalari ham qo'yilgan bo'lib, undan kitobat va yozish qurollaridan boshlab, chinni, tunj, loydan ishlangan haykalchalar, mahalliy qog'oz va ipak na'munalari, zargarlik buyumlari, tumor kabi diniy tasavvurlar bilan bog'liq ashyolar ham o'rin olgan. Tabiatshunoslik bo'limida yo'lbars, qo'tos tulumlari bilan bir qatorda turli – tuman hasharot, qushlarning kalleksiyasi, o'simliklar gerbariysi mavjud bo'lgan. Madanlar bo'limida O'rta Osiyoning turli hududlaridan keltirilgan toshko'mir, oltingugurt, tuz, neft, turli tog' jinslari va madanlar, temir, mis rudalari na'munalari ko'rish mumkin edi. Numizmatika bo'limida miloddan avvalgi III asrdan milodning IV asriga qadar Yunon-Baqtriya, Kushonlar, Sosoniylar, hind hamda musulmon tangalarining eng noyob na'munalari bo'lgan. Arxeologiya bo'limida To'ytepa, Shohruhiya, Issiqko'l, rayonlaridan keltirilgan me'moriy obidalarining sirli koshinlari joylashtirilgan. Qishloq xo'jaligi bo'limi turli o'simliklar urug'lari, asalarichilikka oid ashyolar, ipakchilikka oid kolleksiyalar, dendrologiya na'munalaridan iborat bo'lgan.

1917 yilgi bolsheviklar davlat to'ntarishidan so'ng xonlarning saroy kolleksiyasi va muzeylar milliyalashtirildi hamda davlat mulki deb e'lon qilindi. Badiiy – tarixiy komissiyalar tuzilib, mutaxassislarning fikricha, bu tashkilot madaniy merosni saqlab qolishda muhim ro'l o'ynadi. Muzey ishi va yodgorliklarni muhofaza qilish davlat boshqaruvi tizimi 1918-1920 yillarda yaratildi. Muzeylarni boshqarish yagona tashkilotining tuzilishi muzeysunos arboblarining istak va fikrlarining amalga oshishi bo'ldi. Bu tashkilot RSFSR Maorif xalq komissarligi qoshida tuzilib, uning ishida madaniyat arboblari, muzey xodimlari, san'atshunoslar, rassomlar (I.E.Grabar, P.P.Muratov, N.G.Mashkovsev va boshqalar) faol ishtirok etdi. 1918 -1927 yillari muzey ishi, san'at va qadimgi yodgorliklarni muhofaza qilish bo'limini N.I.Troskaya boshqaradi. Maorif xalq komissarligi rahbarligida mahalliy sovetlar xalq maorifi bo'limlari qoshida muzey ishini boshqarish tashkilotlari tuziladi. Muzeylarni boshqarishning bu tizimini uning markazlashuvini ta'minladi.

Sovet hukumati tashkil etilgan ilk muzeylar natijasida madaniy boyliklar, tarixiy osori – atiqalarni milliyalashtirish asoslarini, madaniy boyliklarni asrash hamda ba'zi yodgorliklarni, muhim hisoblangan kolleksiyalarni asrashga ahamiyat qaratilgan qarorlar qabul qildi.

“Vijdon erkinligi, cherkov va diniy jamiyatlar haqida” gi 1918 yil 20 yanvar dekreti esa cherkov mulkini milliy qadriyat deb e'lon qilindi. Yangi hukumat shu bilan diniy qadriyatlar orqali ham katta mablag' va vositalarga ega bo'ldi. Tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan ashyo – buyumlarni chet elga sotish 1918 yilning sentyabr – dekabr oylarida e'lon qilingan dekretlar bilan taqiqlangan.

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1918 yili 19 apreldagi dekreti bilan knyaz Nikolay Romanovning Toshkentdagi hovlilarini davlat mulki deb e'lon qilindi. Uyi esa xalq muzeyiga aylantirildi. U yerda tasviriy san'atga doir asarlar hamda amaliy san'atning chinni, tunj, mebel hamda boshqa buyumlar bo'lgan. Shuningdek grafikka va haykaltaroshlik, badiiy san'at ashyolari bilan bezatilgan. Moskva davlat muzeyi fondidan 120 ga yaqin badiiy qiymatga bo'lgan eksponatlar muzey fondi uchun yuborilgan.

Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining 1920 yil 31 iyuldagi “Turkiston Respublikasi ayrim shaxslar va jamiyatlar ixtiyorida bo'lgan san'at asarlari, qadimgi yodgorliklarini ro'yxatdan o'tkazish, hisobiga olish hamda qo'riqlash haqida” gi maxsus Qarori muzey jamoalari zimmasiga ma'suliyatli vazifa yukladi. Turkkomstarisning maxsus yo'riqnomasi bilan muzey ashyolarini rasmiylashtirish va ro'yxatga olish joriy etildi. Qarorda ayrim shaxslar ixtiyoridagi yodgorliklarni ro'yxatga olishga katta e'tibor berilgan. Bunday shaxslarga har tomonlama yordam ko'rsatilib, maxsus muhofaza yorliqlari berilar edi.

Turkkomstarisga qimmatbaho ashyolar bilan savdo qilishda maxsus ekspert komissiyasi belgilangan baho bo'yicha sotib olish huquqi berildi. Ushbu maqsadda maxsus mablag' fondi tuzilib, knyaginya Iskandarga tegishli qadimiy qurollar kolleksiyasi 200 ming rublga sotib olindi. Unda Sharq xaqllari Rossiya va Angliyada ishlangan nodir va qimmatbaho qurollar bor edi.

Bundan tashqari, Turkkomstarisga ko'rgazma va nashrlar uchun xususiy kolleksiyalardan foydalanish huquqi ham berildi. Muzey uchun qadrli narsalarni aniqlash uchun ilmiy-badiiy ekspert komissiyasi tuzildi. Uning raisi etib Turkkomstaris muzey sektsiyasining mudiri

A.M.Mironov tayinlandi. Komissiyaning faol harakatlari bilan Turkkomstaris muzey fondi qisqa davr ichida badiiy tarixiy qiymatiga ega ko'plab ashyolar bilan boyildi.

Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1923 yil 3 noyabr qaroriga binoan Turkiston o'lkasining turli viloyatlarida joylashgan 20 ta qadimgi yodgorlik Turkkomstaris ixtiyoriga o'tkazildi. Tarixiy – arxeologik jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan 52 ta yodgorlik hisobiga olindi. Turkiston ACCR ning yettita muzeyida (Buxoro va Xivani qo'shganda) osori atiqalar soni 114075 taga yetdi.

Yuqoridagi barcha tarixiy manbaalarga asoslanib, moddiy-madaniy boyliklarimizni o'rganish, uni tadqiq etilishiga bo'lgan qiziqishning ortishida deb bilish mumkin. Bu tarixiy bosqich bo'lib, bugungi kun rivoji uchun poydevorni o'tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.33.; Tarix shohidligi va saboqlari / Ma'sul muharrir D.A.Alimova. Toshkent: Sharq, 2001.
2. Lunin B.V. “Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении.” Toshkent. Fan, 1965.
3. Tarix shohidligi va saboqlari / Ma'sul muharrir D.A.Alimova. Toshkent: Sharq, 2001.
4. Kuryazova D.T. O'zbekiston muzeylari va ularning mustaqillik davridagi faoliyati (Tarix va o'lkashunoslik muzeylari misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Toshkent 2009.
5. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.- Москва: Издательство «БК», 2003.
6. Культурное строительство в Туркестанской АССР (1917-1924). Том 1. – Ташкент, 1979.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy davlat arxivi fondi.